

X. DEMOGRAFIYA

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning 1 oktabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 4 008,8 ming kishini tashkil qildi va yil boshiga nisbatan 1,5 ming kishiga yoki 1,1 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni, ming kishi

(2021 yil 1 oktabr holatiga)

	Jami aholi soni	shu jumladan:		jami aholi sonidan:	
		erkaklar	ayollar	shahar aholisi	qishloq aholisi
Viloyat bo'yicha	4 008,8	2017,1	1 991,7	1 476,8	2 532,0
Samarqand sh.	559,4	271,0	288,4	559,4	0,0
Kattaqo'rg'on sh.	91,7	45,8	45,9	91,7	0,0
<i>tumanlar:</i>					
Oqdaryo	164,2	82,9	81,3	63,7	100,5
Bulung'ur	192,4	98,1	94,3	42,7	149,7
Jomboy	179,3	90,5	88,8	39,6	139,7
Ishtixon	262,7	132,2	130,5	71,0	191,7
Kattaqo'rg'on	280,8	142,5	138,3	53,2	227,5
Qo'shrabot	135,5	69,1	66,4	12,6	122,9
Payariq	218,1	110,9	107,3	64,9	153,2
Pastdarg'om	258,7	133,9	124,8	74,1	184,6
Paxtachi	365,3	183,5	181,8	94,2	271,0
Samarqand	147,5	73,3	74,2	28,6	118,8
Narpay	260,1	131,4	128,7	16,0	244,1
Nurobod	155,2	78,2	77,1	17,7	137,6
Toyloq	528,9	268,3	260,5	221,8	307,1
Urgut	209,1	105,4	103,6	25,5	183,5


Aholining tabiiy harakati

(yanvar-sentabr oylarida)

	kishi			har ming aholiga, nisbatan	
	2020 y.	2021 y. ¹⁾	o'sish, kamayish	2020 y.	2021 y. ¹⁾
Tug'ilganlar	74 322	81 968	7646	25,4	27,5
O'lim	12 992	14 451	1459	4,4	4,9
Nikohlar	19 829	24 305	4476	6,8	8,2
Ajralishlar	2 058	3 032	974	0,7	1,0

Tug'ilish. 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida 81 968 bola tug'ilgan va 2020 yilning shu davriga (74 322 bola tug'ilgan) nisbatan 7 646 taga ko'paydi, tug'ilish koeffitsienti esa 27,5 promilleni tashkil qildi (2020 yil yanvar-sentabrida 25,4 promille).


Tug'ilish koeffitsientining sezilarli darajada o'sishi Nurobod (28,4 dan 33,1 promillega), Bulung'ur (24,8 dan 27,5 promillega), Payariq (29,0 dan 31,6 promillega), Urgut (29,0 dan 31,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.



Vafot etish darajasi. 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar soni 14 451 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (12 992 kishi) nisbatan 1 459 taga ko‘paydi. O‘lim koeffitsienti esa 4,9 promilleni tashkil qildi (2020 yilning shu davrida 4,4 promille).

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti

(2021 yil yanvar-sentabr)




Vafot etganlar sonining ko‘payishi Samarqand shahrida (6,9 dan 4,4 promillega), Bulung‘ur (4,2 dan 3,7 promillega), Pastdarg‘om (4,2 dan 4,0 promillega) va Samarqand (5,8 dan 5,4 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ro‘yxatga olingan jami vafot etganlar 63,4 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklari, 6,7 foizi - o‘sma kasalliklari, 4,8 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlar, 4,2 foizi - ovqat hazm qilish organlari kasalliklari, 7,8 foizi - nafas olish organlari kasalliklari, 0,6 foizi - infeksiya kasalliklari va qolgan 12,5 foizi esa boshqa kasalliklar bilan kasallanganligi sababli vafot etgan.

Vafot etganlar umumiy sonining tarkibiy tuzulishi, % da

(2021 yil yanvar-sentabr)




Nikoh. 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 24 305 kishi nikohi qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,2 promilleni tashkil etdi.

Nikoh tuzish koeffitsientining sezilarli darajada kamayishi Oqdaryo (8,1 dan 6,6 promillega), Bulungʻur (8,5 dan 8,1 promillega), Jomboy (8,8 dan 6,8 promillega), Ishtixon (7,9 dan 7,2 promillega), Payariq (9,3 dan 8,9 promillega), Toyloq (7,9 dan 6,4 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti


(2021 yil yanvar-sentabr)




Nikohdan ajralishlar. 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlarida 3 032 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan boʻlib, 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Nikohdan ajralish koeffitsientining sezilarli darajada ko‘payish Samarqand (1,5 dan 1,0 promillega) va Kattaqo‘rg‘on shaharlarida (1,4 dan 1,3 promillega), Bulung‘ur (0,9 dan 0,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2021 yil yanvar-sentabr)



Migratsiya. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 7 697 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 14 093 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i minus -6 396 kishi (2020 yilning shu davrida minus -9 212 kishi)ga teng bo‘ldi.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari, kishi

(yanvar-sentabr oylarida)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya sal'dosi	
	2020 y.	2021 y.	2020 y.	2021 y.	2020 y.	2021 y.
Viloyat bo'yicha	3 580	7 697	12 792	14 093	-9 212	-6 396
Samarqand sh.	723	4190	1902	2152	-1 179	2 038
Kattaqo'rg'on sh.	181	440	411	604	-230	-164
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	67	160	444	592	-377	-432
Bulung'ur	226	309	776	866	-550	-557
Jomboy	257	299	305	419	-48	-120
Ishtixon	162	420	1030	1067	-868	-647
Kattaqo'rg'on	247	337	1619	1070	-1 372	-733
Qo'shrabot	96	168	702	999	-606	-831
Payariq	144	156	1139	1246	-995	-1 090
Pastdarg'om	141	149	590	830	-449	-681
Paxtachi	242	10	780	950	-538	-940
Samarqand	501	394	503	724	-2	-330
Narpay	278	169	933	674	-655	-505
Nurobod	19	192	508	488	-489	-296
Toyloq	202	283	216	300	-14	-17
Urgut	94	21	934	1112	-840	-1 091